



SIYDIK-TOSH KASALLIKLARINI TASHXISLASHDA KTNING  
DIAGNOSTIK AHAMIYATI

*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Majidova Zinnura Azizjon qizi*

*+998949812407*

**Dolzarbligi:** Siydik-tosh kasalligi (urolitiaz) urologik kasalliklar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bemorlarda kuchli og‘riq, siydik yo‘llari obstruksiyasi va buyrak funksiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin. Kasallikni erta aniqlash va toshlarning joylashuvi, hajmi hamda tarkibini aniqlash samarali davolash usulini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy radiologik tekshiruv usullari orasida kompyuter tomografiya (KT) siydik tosh kasalligini tashxislashda eng yuqori aniqlikka ega bo‘lgan usullardan biri hisoblanadi.

**Maqsad:** Siydik tosh kasalligini aniqlashda kompyuter tomografiyaning diagnostik imkoniyatlari va afzalliklarini baholash.

**Materiallar va usullar:** Tadqiqot Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida siydik tosh kasalligiga shubha qilingan 20-55 yosh oralig‘idagi 9 ta erkak, 6 ta ayol jami 15 nafar bemor jalb qilindi. Barcha bemorlarda siydik chiqarish tizimini baholash maqsadida nativ kompyuter tomografiya (KT)

tekshiruvini orqali quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

- toshlarning joylashuvi
- o‘lchami
- soni
- zichligi (Hounsfield birliklari – HU)
- siydik yo‘llarida obstruksiya va gidronefroz mavjudligi.



**Natija:** Kompyuter tomografiya tekshiruvlari natijasida tadqiqotga kiritilgan 15 nafar bemorning barchasida siydik chiqarish tizimida toshlar aniqlangan. Toshlarning joylashuvi quyidagicha taqsimlandi:

Buyrakda – 4 nafar bemor (26,7%)

Ureterning yuqori qismida – 3 nafar bemor (20%)

Ureterning o‘rta qismida – 2 nafar bemor (13,3%)

Ureterning distal qismida – 6 nafar bemor (40%)

Toshlarning o‘lchami 3 mm dan 12 mm gacha bo‘lib, ularning zichligi 350–950 HU oralig‘ida aniqlangan. 5 nafar bemorda (33%) siydik yo‘llari obstruksiyasi va gidronefroz belgilari kuzatildi.

**Muhokama:** Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, nativ kompyuter tomografiya (KT) siydik tosh kasalligini tashxislashda yuqori aniqlikka ega. 15 bemorning barchasida toshlar aniqlangan bo‘lib, toshlarning joylashuvi, o‘lchami va zichligini aniq baholash imkoniyati kuzatildi. Shu bilan birga, 5 nafar bemorda siydik yo‘llari obstruksiyasi va gidronefroz belgilari aniqlanib, KTning klinik ahamiyati yanada oshdi.

Ultratovush tekshiruvlari xavfsiz bo‘lsa-da, kichik va distal joylashgan toshlarni aniqlashda cheklangan, rentgenografiya esa faqat rentgenpozitiv toshlarni ko‘rsatadi. Shu sababli, KT oltin standart (gold standard) sifatida qabul qilingan.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, KT yordamida toshlarning zichligi (HU) aniqlanib, ularning kimyoviy tarkibi taxmin qilinadi. Bu esa davolash usulini tanlashda — konservativ davolash, litotripsiya yoki jarrohlik aralashuvini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Kompyuter tomografiya siydik tosh kasalligini tashxislashda yuqori aniqlik va sezuvchanlikka ega bo‘lib, toshlarning joylashuvi, o‘lchami va zichligini aniq baholash imkonini beradi. Shu sababli KT urolitiazni diagnostika qilishda eng ishonchli va informativ usullardan biri hisoblanadi.